ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ МАДАНИЯТ ВАЗИРЛИГИ ҲУЗУРИДАГИ
“ЎЗБЕККОНЦЕРТ” ДАВЛАТ МУАССАСАСИНИНГ
БУЙРУҒИ

Тошкент ш. № 37-17 “ 11 ” 11 2021 йил

Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovini o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida” 2019-yil 20-martdagi 237-son qarori, 2021-yil 30-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Madaniyat va san’at haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 111-son majlis bayoni shuningdek, Madaniyat vazirligining 2021-yil 5-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Madaniyat va san’at haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”ga 451-son buyrug‘i ijrosini ta’minlash maqsadida

BUYURAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Xalq cholg‘ulari ijrochilari”, Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” va Yunus Rajabiy nomidagi “Yosh maqom ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovlarini o‘tkazish to‘g‘risida” 2019-yil 20-martdagi 237-son qarori, 2021-yil 30-oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Madaniyat va san’at haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”gi 111-son majlis bayoni shuningdek, Madaniyat vazirligining 2021-yil 5-noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining o‘ttiz yilligi munosabati bilan “Madaniyat va san’at haftaligi”ni tashkil etish va o‘tkazish to‘g‘risida”ga 451-son buyrug‘i ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2021-yil 5-noyabrdagi 451-son buyrug‘i bilan:

Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovi (keyingi o‘rinlarda – ko‘rik-tanlov deb ataladi)ning birinchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar saralash bosqichlari 2021-yilning 22–27-noyabr kunlari, ikkinchi respublika bosqichi 30-noyabr kuni

"Turkiston" san'at saroyida, ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi 1-dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat akademik katta teatrida o'tkazilishi;

"Madaniyat va san'at haftaligi"ni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tashkiliy va ijodiy guruh tarkibi 1-ilovaga, Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish bo'yicha sarf-xarajatlar smetasi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlangani;

Mukarrama Turg'unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" respublika ko'rik-tanlovini o'tkazish bilan bog'liq sarf-xarajatlar "Yangi O'zbekistonda erkin va farovon yashaylik!" qo'shiqlar tanlovini o'tkazish uchun mablag'lar hisobidan Madaniyat vazirligi tasarrufidagi Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash va axborot-multimedia markazi tomonidan qoplanishi inobatga olinsin.

3. Ko'rik-tanlovni tashkil etish va o'tkazish bo'yicha Tashkiliy-ishchi guruhi tarkibi 1-ilovaga, ko'rik-tanlov Nizomi 2-ilovaga, hakamlar hay'ati tarkibi 3-ilovaga, ko'rik-tanlovning hududlarda o'tkazish bo'yicha hay'at a'zolari va mas'ullar tarkibi 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Ishchi-ijodiy guruh (Yunusov)ga:

ko'rik-tanlovning saralash va yakuniy respublika bosqichlari, shuningdek, taqdirlash marosimini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosini ta'minlash;

Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlardagi hududiy bo'lim boshliqlari bilan hamkorlikda ishtirokchilar ro'yxatini shakllantirish;

ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlarini taqdirlash marosimi jarayonini muvofiqlashtirish va tegishli hujjatlarni o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilishini nazoratga olish;

ko'rik-tanlovning saralash bosqichlarini o'tkazish uchun hududlarga yuboriladigan hakamlar hay'ati va mas'ul xodimlarni belgilangan muddatlarda tanlovda ishtirokini ta'minlash vazifalari yuklatilsin.

5. Milliy raqs va xoreografiya san'ati faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo'limi (Musayeva, Alimova)ga:

ko'rik-tanlovni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-martdagi 237-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom talablariga muvofiq yuqori saviyada o'tkazish;

taqdirlash marosimi uchun statuetka, diplom va sertifikatlarni tayyorlash;

respublika bosqichi ishtirokchilari ro'yxatini shakllantirish vazifalari yuklatilsin.

6. Iqtisodiy tahlil va buxgalteriya hisobi bo'limi boshlig'i (Sharipov) hududlarga yuboriladigan hakamlar hay'ati va mas'ul xodimlarning xizmat safari (borish-kelish, turar joy, ovqatlanish) bilan bog'liq barcha xarajatlari asosiy ish joyidan qoplanishini inobatga olsin.

7. “O‘zbekkonsert” davlat muassasasining hududiy bo‘lim boshliqlariga:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi madaniyat vaziri, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmalari bilan birgalikda ko‘rik-tanlovning birinchi bosqichini o‘tkazish uchun shart-sharoit yaratisin;

zarur texnik vositalar (ovoz kuchaytirish moslamalari, LED ekranlar, yoritish uskunalari) bilan ta’minlasin;

Toshkent shahridan yuboriladigan hakamlar hay’ati a’zolariga zarur shart-sharoitlarni yaratsin;

hakamlar hay’ati a’zolari bilan birgalikda vazirlik tasarrufidagi ta’lim muassasalarida ustoz-shogird an’analarini davom ettirish maqsadida ijodiy uchrashuvlar, mahorat darslarini tashkil etsin.

8. Milliy raqs va xoreografiya san’ati faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish bo‘limi (Alimova) Konsert-tomosha faoliyatini tashkil etish va ijodkor yoshlar bilan ishlash bo‘limi (Xudoyberdiyev), Konsert-tomosha faoliyatini litsenziyalash bo‘limi (Sheraliyev) bilan birgalikda ko‘rik-tanlov g‘oliblarini taqdirlash marosimini o‘tkazish uchun konsert dasturi loyihasini shakillantirsin va tasdiqlatsin.

9. Ommaviy tadbirlar, ijodiy jamoalar va yakkaxon ijrochilar bo‘yicha ovoz yozish studiyasi (Mirusmonov) ko‘rik-tanlov ishtirokchilari uchun ovoz yozish studiyasidan foydalanish imkoniyatini yaratsin.

10. Matbuot xizmati (Rasulov) mazkur tanlovning reklama roligini, tanlov jarayonlari, taqdirlash marosimini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borilishini ta’minlasin.

11. Ushbu buyruq ijrosini nazorat qilish direktorning ijodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari F.Yunusov hamda tashkiliy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari M.Sayfullayev zimmasiga yuklansin.

Direktor v.v.b **J.Uzakov**

"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi
direktorining
2021-yil ____ _____ dagi
_____- sonli buyrug‘iga
1-ilova

Ko‘rik-tanlovini tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha ishchi-ijodiy guruh
TARKIBI

F. Yunusov	–	direktorning ijodiy masalalar bo‘yicha o‘rinbosari, *guruh rahbari*
B. Rasulov	–	Matbuot xizmati rahbari
G. Musayeva	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bo‘limi boshlig‘i
O’. Xudoyberdiyev	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bo‘limi boshlig‘i
D. Sheraliyev	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bo‘limi boshlig‘i
N. Alimova	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bosh mutaxassisi
lavozimiga ko‘ra	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasining hududiy bo‘lim boshliqlari

"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi
direktorining
2021-yil ____ _____ dagi
_____- sonli buyrug‘iga
2- ilova

"Milliy raqs ijrochilari" respublika ko‘rik-tanlovining
Nizomi
1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizom Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi "Milliy raqs ijrochilari" respublika ko‘rik-tanlovini (keyingi o‘rinlarda tanlov deb ataladi) o‘tkazish tartibini belgilaydi.

2. Tanlov ijro dasturi asosida mazkur Nizomga ilovadagi sxema bo‘yicha o‘tkaziladi.

3. Tanlovning ijro dasturi va tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tanlov boshlanishidan kamida uch oy oldin tasdiqlanadi.

Tasdiqlangan ijro dasturi va tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati:

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasiga besh kun muddatda;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi tomonidan ijro dasturi va tanlovda ijro etiladigan asarlar ro‘yxati kelib tushgandan keyin uch kun muddatda ixtisoslashtirilgan san’at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar, madaniyat va san’at yo‘nalishidagi akademik litseylar, oliy ta’lim muassasalari, bolalar musiqa va san’at maktablari, badiiy va ijodiy jamoalarga yetkaziladi.

4. Tanlov dasturi tasdiqlangandan so‘ng unga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritishga yo‘l qo‘yilmaydi.

5. Tanlov 2019-yildan boshlab har ikki yilda bir marta oktyabr oyida o‘tkaziladi.

6. Tanlov ikki bosqichdan iborat bo‘ladi. Tanlovning 1-bosqichi tanlov o‘tkaziladigan yilning sentyabr oyida Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar miqyosida, yakuniy bosqichi tanlov o‘tkaziladigan yilning oktyabr oyida Toshkent shahrida bo‘lib o‘tadi.

7. Tanlovni o‘tkazishning aniq sanasi va muddati O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan belgilanadi hamda ushbu tanlov boshlanishidan uch oy oldin ommaviy axborot vositalarida e’lon qilinadi.

8. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bo‘yicha mas’ul hisoblanadi.

2-bob. Tanlovning maqsadi

9. Tanlovning maqsadi quyidagilardan iborat:

milliy raqs san'atini yanada rivojlantirish, uni yuksak darajaga ko'tarish va dunyo sahnalariga olib chiqish;

iste'dodli milliy raqs ijrochilarini va baletmeystyerlarni kashf etish, ularni rag'batlantirish va ijodini keng targ'ib qilish;

yoshlar orasida o'zbek milliy raqs san'atiga qiziqishni oshirish;

"Ustoz-shogird" an'anasini tiklash va rivojlantirish asosida milliy raqs ijrochilari uchun zamonaviy raqs maktablarini yaratish.

3-bob. Tanlovda ishtirok etish shartlari

10. Tanlovda O'zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan san'at va madaniyat maktablari, maktab-internatlar, madaniyat va san'at yo'nalishidagi akademik litseylar o'quvchilari, oliy ta'lim muassasalarining talabalari, o'qituvchilari, bolalar musiqa va san'at maktablarining o'qituvchilari, badiiy va ijodiy jamoalarning raqqosalari hamda erkin ijodkorlar ishtirok etishi mumkin.

11. Tanlovda 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan raqqosalar ishtirok etadi.

12. Tanlovda ishtirok etishni istagan ijrochilar tanlov boshlanishidan o'ttiz kun oldin Qoraqalpog'iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishlari lozim:

tanlovda ishtirok etish uchun ma'lumotnoma (rezyume);

pasport nusxasi;

ma'lumot to'g'risidagi hujjat (diplom) nusxasi (mavjud bo'lsa);

o'qish yoki ish joyidan berilgan ijodiy tavsifnoma va ma'lumotnoma;

3 x 4 sm o'lchamdagi 2 ta va 9 x 12 sm o'lchamdagi 2 ta rangli fotosurat;

tanlovda ishtirok etish uchun ijro dasturi (asar va musiqa nomi, sahna libosi muallifi va baletmeysterning familiyasi, ismi va otasining ismini ko'rsatgan holda).

13. Belgilangan muddatdan kech taqdim etiladigan hujjatlar qabul qilinmaydi.

4-bob. Tanlovni o'tkazish shartlari

14. Ishtirokchilarning tanlov davomidagi tegishli yo'nalishlar bo'yicha ijro etish navbati belgilangan tartibda qur'a tashlash orqali aniqlanadi va ushbu tartib tanlov yakuniga qadar saqlab qolinadi.

15. Tanlov milliy raqs ijrochiligi yo'nalishi bo'yicha o'tkaziladi.

16. Tanlov ishtirokchilarining ijro dasturi yakka ijro tarzida namoyish etiladi.

5-bob. Tanlov ishtirokchilarini baholash va g‘oliblarni taqdirlash

17. Tanlovning 1-bosqichini o‘tkazish bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vaziri, viloyatlar madaniyat boshqarmalari boshliqlari hamda Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi boshlig‘ining buyrug‘i bilan 5 – 7 nafar yetakchi mutaxassislardan iborat hakamlar hay’ati tarkibi tasdiqlanadi. Ushbu tarkibga kiritish uchun respublikadan 1 – 2 nafar soha mutaxassislari joylarga jalb etiladi.

Bunda, respublikadan hududlarga jalb etiladigan hakamlarning kelib-ketish, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari belgilangan tartibda ularning asosiy ish joyidan qoplanadi.

Tanlovning yakuniy bosqichini o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi madaniyat vazirining buyrug‘i bilan madaniyat va san’at sohasidagi 5 – 7 nafar yetakchi mutaxassislardan iborat hakamlar hay’ati tarkibi tasdiqlanadi.

18. Tanlovni o‘tkazish bo‘yicha hakamlar hay’atining ish yo‘riqnomasi O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

19. Tanlovning barcha bosqichlarida ishtirokchilarning ijro mahoratlari hakamlar hay’atining har bir a’zosi tomonidan alohida tarzda 25 ballik tizim bo‘yicha baholanadi.

20. Hududlarda o‘tkaziladigan tanlovning 1-bosqichi natijalariga ko‘ra eng yuqori ball to‘plagan uch nafar ishtirokchi hakamlar hay’atining qaroriga asosan tanlovning yakuniy bosqichiga tavsiya etiladi va ularning hujjatlari tanlov o‘tadigan yilning 1-oktabriga qadar Qoraqalpog‘iston Respublikasi Madaniyat vazirligi, viloyatlar madaniyat boshqarmalari va Toshkent shahar madaniyat bosh boshqarmasi tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligiga taqdim etiladi.

21. Tanlovning yakuniy bosqichida eng ko‘p ball to‘plagan ishtirokchilar orasidan hakamlar hay’ati qaroriga asosan tanlovning 1, 2, 3-o‘rin sovrindorlari aniqlanadi.

22. Hakamlar hay’ati tomonidan ishtirokchilarga qo‘yilgan ballar teng bo‘lib qolganda, hakamlar hay’ati raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

23. Ishtirokchilarni baholashda hakamlar hay’ati mustaqildir.

24. Tanlovning yakuniy natijalari hakamlar hay’atining qarori bilan rasmiylashtiriladi.

25. Ishtirokchilar hakamlar hay’ati qarori yuzasidan tanlovning har bir bosqichi yakuni bo‘yicha bir kun muddatda hakamlar hay’ati raisi nomiga apellatsiya shikoyati (ariza) berishlari mumkin. Apellatsiya shikoyati belgilangan tartibda ro‘yxatga olinadi, bir kun muddatda ko‘rib chiqilib, bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi va o‘sha kunning o‘zida e’lon qilinadi.

26. Tanlov g‘oliblari har bir yo‘nalish bo‘yicha diplom, statuetka va quyidagi miqdorlarda pul mukofotlari bilan taqdirlanadi:

1-o‘rin – bazaviy hisoblash miqdorining 40 barobari miqdorida pul mablag‘lari;

2-o‘rin – bazaviy hisoblash miqdorining 30 barobari miqdorida pul mablag‘lari;

3-o‘rin – bazaviy hisoblash miqdorining 20 barobari miqdorida pul mablag‘lari.

27. Tanlov g‘oliblari bo‘lgan o‘quvchi va talabalarning baletmeystyerlari (ustoz, o‘qituvchi) va jo‘rnavozlari, maxsus musiqa muallifi hamda libos rassomlari faxriy yorliq yoki esdalik sovg‘alari bilan taqdirlanadi.

28. Tanlovning yakuniy bosqichi ishtirokchilariga Mukarrama Turg‘unboyeva nomidagi “Milliy raqs ijrochilari” respublika ko‘rik-tanlovi ishtirokchisi sertifikati beriladi.

6-bob. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazishni moliyalashtirish.

29. Tanlovni tashkil etish va o‘tkazish bilan bog‘liq xarajatlar quyidagi manbalar hisobidan amalga oshiriladi:

O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti parametrlarida Madaniyat vazirligiga ajratilgan budjet mablag‘lari;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari;

yuridik va jismoniy shaxslarning homiylik xayriyalari;

qonun hujjatlarda taqiqlanmagan boshqa manbalar.

Bunda, tanlovlar sovrindorlariga to‘lanadigan pul mukofotlari O‘zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag‘lari hisobidan qoplanadi.

30. Tanlov ishtirokchilarining tanlov o‘tkazilishi belgilangan hududga kelib-ketish, mehmonxona va ovqatlanish xarajatlari ularni tanlovda ishtirok etish uchun yuborayotgan tashkilot hamda muassasalar tomonidan yoki homiylik xayriyalari hisobidan qoplanadi.

7-bob. Yakunlovchi qoyida

31. Tanlovni o‘tkazish jarayonlari bo‘yicha kelib chiqadigan nizolar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hal etiladi.

"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi
direktorining
2021-yil ____ _____
dagi
_____- sonli buyrug‘iga
3-ilova

Ko‘rik-tanlovning Respublika bosqichi hakamlar hay’ati
TARKIBI

M. Ergasheva	–	O‘zbekiston xalq artisti, Hakamlar hay’ati raisi
Q. Do‘smuhamedova	–	O‘zbekiston xalq artisti, a’zo
Q. Mo‘minov	–	O‘zbekiston xalq artisti, a’zo
Z. Madrahimova	–	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, a’zo
A. Mullaxonov	–	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, a’zo
G. Jurayeva	–	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist, a’zo
R. Sultanova	–	O‘zbekiston xalq artisti, a’zo
N. Alimova	–	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi "Milliy raqs va xoreografiya san’atini rivojlantirish bo‘limi" bosh mutaxassisi, kotib

"O‘zbekkonsert" davlat
muassasasi direktorining
2021-yil ____ _____ dagi
_____- sonli buyrug‘iga
4-ilova

Ko‘rik-tanlovning hududlarda o‘tkazish bo’yicha
Hay’at a’zolari va mas’ullar
TARKIBI

№	Hududlar	Muddati	Hay’at a’zolari va mas’ullar
1.	Xorazm viloyati	22.11.2021 y	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bo’lim boshlig’i G.Musayeva
2.	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	23.11.2021 y	
3.	Namangan viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist F.Solihova
4.	Farg‘ona viloyati	22.11.2021 y	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bosh mutaxassisi N.Alimova
5.	Andijon viloyati	23.11.2021 y	"O‘zbekkonsert" davlat muassasasi bosh mutaxassisi N.Alimova, O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist F.Solihova
6.	Toshkent viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekiston xalq artisti R.Sultonova
7.	Surxondaryo viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist G.Abdiyeva
8.	Sirdaryo viloyati	22.11.2021 y	Respublika xoreografiyaga ixtisoslashtirilgan maktab-internati o‘qituvchisi, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist D.Yunusova,
9.	Jizzax viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi K.Uzoqova
10.	Samarqand viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist F.Azatova
11.	Buxoro viloyati	22.11.2021 y	"Navbahor" ashula va raqs ansambli badiiy rahbari, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist G.Madrahimova
12.	Qashqadaryo viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi o‘qituvchisi Sh.Jalilova
13.	Navoiy viloyati	22.11.2021 y	O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist N.Shermatov
14.	Toshkent shahar	24.11.2021 y	V.Oqilova, N.Madrahimova, N.Zulinova, B.Rustamov, Z. G‘oziyeva